

## 24. Yaxlit sonlarni ko'paytirish

Yondosh mavzu:  
Banknotlar va kupyurlar

Ko'paytirishning xossalari,  
yaxlit sonlar



1. Har bir hamyonda qanchadan pul borligini aniqlang.



2. Namuna bo'yicha yozing va hisoblang.

Namuna:

$$30 \cdot 70 = (3 \cdot 10) \cdot (7 \cdot 10) = (3 \cdot 7) \cdot (10 \cdot 10) = 21 \cdot 100 = 2\,100$$
$$20 \cdot 40 \quad 300 \cdot 90 \quad 60 \cdot 8\,000 \quad 7 \cdot 50\,000$$



Ikkita yaxlit sonni ko'paytirish uchun xayolan ularning nollarini olib tashlash, ko'paytirishni bajarish, natijaga esa har ikkala ko'payuvchida nechta nol bo'lsa, shuncha nolni yozib qo'yish kerak.

$$7\,000 \cdot 600 = 4\,200\,000$$



3. Ifodalarning qiymatini toping.

- a)  $70 \cdot 800\,000$
- b)  $400 \cdot 70\,000$
- c)  $40 \cdot 20 \cdot 3\,000$
- d)  $50 \cdot 20 \cdot 200$
- e)  $20 \cdot 30 + 60 \cdot 70$
- f)  $500 \cdot 60 + 700 \cdot 30$

## 24. Yaxlit sonlarni ko'paytirish



4. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.
- Ekskursiyaga 30 kishi borishi kerak. Ikki kishi uchun 240 000 so'm pul ketadi. Butun guruh qancha sarflashi kerak?
  - Do'kondan har biri 500 so'mdan 20 ta daftар, 1 200 so'mdan 4 ta ruchka va 15 000 so'mdan 2 ta bloknot sotib olindi. Hammasi uchun qancha pul to'landi?
5. Ifodalar tuzing va ularning qiymatini hisoblang.
- 46 va 26 sonlari ayirmasini 600 va 3 sonlari bo'linmasiga ko'paytiring.
  - 40 va 2 sonlari ko'paytmasini 130 va 270 sonlari yig'indisiga ko'paytiring.
  - 176 va 76 sonlari ayirmasini 234 va 166 sonlari yig'indisiga ko'paytiring.
  - Eng kichik besh xonali son bilan 7 sonining ko'paytmasini eng kichik uch xonali son bilan 5 sonining bo'linmasiga qo'shing.



6. Ifodalarni taqqoslang.

$$60 \cdot 8000 \quad \square \quad 600 \cdot 80$$

$$4000 \cdot 7 \quad \square \quad 7000 \cdot 4$$

$$20 \cdot 50 \cdot 3 \quad \square \quad 600 \cdot 5 \cdot 2$$

$$a \cdot 900 \quad \square \quad 600 \cdot a$$

$$b \cdot 700 \quad \square \quad b : 700$$

$$200 \cdot 5 \cdot c \quad \square \quad c \cdot 500 \cdot 2$$



7. Banknotlarning qiymatini o'rganing. Yirik pullarni almashtirish uchun qancha kichik banknotlar kerak bo'ladi?



## 24. Yaxlit sonlarni ko'paytirish



8. Har bir bog'lamda qanchadan pul bor?



80 ta kupyura



60 ta kupyura



30 ta kupyura



9. Dilshod onasidan qancha puli borligini so'radi. Onasi, agar unga yana 150 000 so'm berilsa va u hamma pulning yarmini shirinlikka ishlatsa, 250 000 so'm qolishini aytdi. Uning qancha puli bor edi?



10. Amallarni bajarilish tartibiga ko'ra hisoblang. Banknotlarning qiymati qanday atalishini bilib oling.

$$9\ 390 - (80 \cdot 60 + 2\ 389) + (3\ 575 + 2\ 976 - 4\ 151) \cdot 2$$

**A** 2 201    **L** 7 001    **I** 2 400    **M** 6 551    **O** 7 189    **N** 4 800



11. Ifodalarning qiymatlarini xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

$$\text{a)} 6\ 000 \cdot 8\ 000 + 60 \cdot 3\ 000 + 17 \cdot 10 + 900 : 100$$

$$\text{b)} 27 \cdot 100\ 000 + 36 \cdot 100 + 630 : 90$$



12. Hisoblang.

$$20 \cdot 60 + 4\ 500 : 100$$

$$80 \cdot (375 + 525) - 1\ 954$$

$$30 \cdot (14 + 6) \cdot 70$$

$$2 \cdot (563 - 163) \cdot 90$$



13. Kamzul uchun 8 ta 50 000 so'mlik kupyura, 10 ta 20 000 so'mlik kupyura va 30 ta 5 000 so'mlik kupyura berildi. Jami qancha pul to'landi?